Annayev Abdurasul Abdurashidovich, Tojiboyev Jasurbek Shavkat o'g'li, Rustamov Suxrob Asror o'g'li	
Moliyaviy bozorlar chayqalmoqda: investorlar uchun yangi signalmi?	1158
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li, Yaxshiboyev Jahongir Abdualimovich	
Yashil moliyalashtirish va esg samaradorligining iqtisodiyot barqarorligidagi o'rni.....	1166
Yusupov Sherzodbek Baxtiyor o'g'li, Atadjanov Kadambay Sapayevich, Madraimov Xabibulla Madaminovich	
Tijorat banklarida muammoli kreditlarni kamaytirish bo'yicha tizimlarni takomillashtirish yo'llari	1170
Bekmurodova Mahbuba Mahmudovna	
Maqola: Globalizatsiyada inson resurslarini boshqarishda raqamli transformatsiyaning rejasini tuzish	1177
Salimjonova Gulhayo Asliddin qizi, Ovxonov Iqboljon Abdunabiyevich, Nabiye Sherzodbek Nurmuhammad o'g'li	
Turizm sanoatida Internet-marketing vositalari va ulardan samarali foydalanish	1182
Babaev Jo'rabek	
Ishlab chiqarishni boshqarishda mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning ahamiyati	1190
Asqarova Lobarxon Usmanjanovna	
O'zbekistonda ichki turizm faoliyatini rivojlantirishda transport infratuzilmasini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy jihatlarini	1194
Turopov Maqsudjon	
Kichik biznes faoliyatini rivojlantirishda soliq siyosatini takomillashtirishning ahamiyati	1199
Abdurahmonov Abdumalik Abdug'ani o'g'li	
Madaniy-tomosha xizmatlarining tahlili va uni rivojlantirish yo'llari	1204
Annayev Abdurasul Abdurashidovich	
Цифровизация экономики и генезис стран мирового хозяйства	1211
Камилова Наргиза Абдукажоровна	
"Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi" faoliyati	1216
Xushmurodov Baxtiyor Turg'un o'g'li	
Soliq stavkalarini tabaqalashtirish asosida soliq to'lovchilar iqtisodiy faoliyatini tartibga solish mexanizmlari.....	1220
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish va barqaror rivojlanishga ta'sir etuvchi omillar	1223
Xamdamov Shoh-Jahon Rahmat o'g'li	
Mintaqaning eksport salohiyati tahlili asosida istiqbolli y'nalishlarni aniqlash (Xorazm viloyati misolida).....	1229
Ibadullayev Ergash Bakturdiyevich	



Uy-joy kommunal xo'jaligini mintaqada innovatsion rivojlantirishni boshqaruvi	1235
Adilova Yulduz Shavkatovna	
Bank tizimi likvidligini ta'minlash vositalari va usullarini takomillashtirish	1239
Poyonov Bobir Bekmurod o'g'li	
Milliy brendlarni shakllantirish orqali tashqi bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirish	1245
Muratbaeva Eleonora Muxamedjan qizi	
Charm mahsulotlaridan tayyorlangan bolalar transformatsion sumka ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligi	1250
Ismailov Nurulla Tuychibayevich	
O'zbekistonda qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyati: iqtisodiy tahlil va islohotlar zarurati	1256
Raximov Ilyos Ikramovich	
Yoqilg'i-energetika kompleksida innovatsion salohiyatni oshirish strategiyasi.....	1262
Nabiyeva Saidaxon Abduvaxabovna	
Banklarda moliyaviy xavfsizlik kategoriyasining evolyusiyasi.....	1268
Qobilov Muxammad Ayubxon Yusufjon o'g'li	
Развитие системы бухгалтерского учёта и отчётности на современном этапе	1273
Мамажонов Акрамжон Тургунович, Юсупова Малика Ботиралиевна	
Практика банковского кредитования предпринимательских субъектов сферы услуг в германии	1279
Мукарова Сарвиноз Маликовна, Каримова Азиза Махомадризовна	
Статистический анализ теневой экономики в узбекистане	1283
Кошанов Абдимурат Азат ули, Абдиразакова Асемай Жандулла кизи	
The importance of using digital technologies in business	1288
Makhmudova Munisakhon Abbos qizi	
0,4 kv kuchlanishdan ta'minlanuvchi suv nasoslarini tarmoq faza kuchlanishi yo'qolishidan himoyalash.....	1292
Xalikova Xurshida Abdullayevna, Nurova Malika Abduzairovna, Mustayev Ruslan Aktamovich	
Tijorat banklarida korporativ boshqaruv tizimining samaradorligini oshirish	1297
Dexkonova Sayidaxon Nurmuxammatovna	
Ijtimoiy-iqtisodiyot va markaziy osiyo mamlakatlari ijtimoiy sohada	1302
Usmanxo'jayeva Surayyo Muxtarovna	
Aksiyalarni ommaviy joylashtirish amaliyotini tashkil etish va o'tkazish bosqichlari	1307
Raimov Farrux Avazjon o'g'li	
Approaches to effective management of tax liabilities through tax auditing	1311
Abdullayev Abror Bozarboevich	
Tijorat banklarida aktivlarni sekyuritizatsiyalash tizimini takomillashtirish.....	1316
Axmedov Akbarali Sultonmurodovich	
Tashqi va ichki omillar ta'sirini hisobga olgan holda korxona moliyaviy holati barqarorligining tahlili	1325
Eshkuvatov Azizjon Baxtiyorovich	
Tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan kreditlarning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli	1330
Masharipov Rasulbek Jo'rabekovich	
Sun'iy intellekt asosida bank tizimini modernizasiya qilish va samaradorligini oshirish	1333
Boykulov Baxriddin Karshievich	
Aksiyadorlik jamiyatlarini moliyalashtirish manbalaridan samarali foydalanish.....	1338
Arifjanova Yayraxon Usmonxo'jayevna	
Ipoteka obligatsiyalarining mamlakat iqtisodiyotining o'sishidagi ahamiyati hamda mazkur obligatsiyalar bilan bog'liq risklar	1343
Ibrohimov Yorqinjon To'liqin o'g'li	
Анализ спроса и потребительского поведения на продукцию, выращенную гидропонным методом	1349
Дурманов Акмал Шаймарданович	
Global moliyaviy inqirozlar sharoitida aholi daromadlarining barqarorligini ta'minlash strategiyalari.....	1355
Qurbanov Ulug'bek Erkinovich, Nutfullayev Shohrux Mexli o'g'li	



“O‘zbekistonning “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish strategiyasi: mavjud muammo va istiqbolli imkoniyatlar”	1359
Ismailov Dilshod Anvarjonovich, Akramova Aziza Abduvohidovna	
Aksiyadorlik jamiyatlarida davlat xaridlarini tashkil etish amaliyotini takomillashtirish.....	1366
Saidaxmedova Aida Mirzayevna	
O‘zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirish masalalari	1372
Abduraxmonova Ziyoda Abdullayevna	
Netto ish haqini hisoblashning innovatsion usullari.....	1378
Mirmahmudov Murod Ibratovich	
Xizmat ko‘rsatish sohasida tadbirkorlik: iqtisodiy va ijtimoiy istiqbollar	1383
Xaydarova Shoxista Davranovna	
Texnologiya fanida sun‘iy intellekt va kompyuter texnologiyalaridan foydalanish	1388
Ashurov Nazar Raxmatullaevich	
Korporativ xaridlarni amalga oshirishdagi byurokratik to‘siqlar va ularni bartaraf etish usullari	1391
Qurbanov Shohboz Lutfillayevich	
Yashil yondashuvlar asosida barqaror iqtisodiyotni rivojlantirishning nazariy asoslari.....	1396
Ubaydullaev No‘monjon Isroilovich	
Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini SWOT va pestel tahlil qilish orqali iqtisodiy bashoratlash.....	1401
Karimova Maftuna Nurdinovna	
O‘tkir revmatik isitmasi bor bolalarda kardiometriya ko‘rsatkichlarining statistik tahlili	1407
Muxamadiyeva Lola Atamuradovna	
Ways to develop digital economy and electronic government in UZBEKISTAN	1418
Nuriddinova Dilshodaxon Abdulla kizi	
O‘zbekistonda hayot sug‘urtasining joriy etilishi va unga ta’sir etuvchi demografik omillar ta’siri.....	1422
Mirzamahmudova Madina Odiljon qizi	
Global iqlim o‘zgarishining turizm sektoriga ta’siri: muvofiqlashtirish va barqarorlikka erishish strategiyalari	1428
Karimova Shaxnoza Uktamovna	
Prospects for the development of islamic microfinance services in uzbekistan.....	1433
Sadullaeva Gulnoza Usmanovna	
Global iqlim o‘zgarishi riski uning mamlakat iqtisodiyoti moliyaviy sektoriga ta’siri	1439
Baratov Sa’dulla Norjigit o‘g‘li, Jo‘rayev Behzod Nuraliyevich	
Перспективы унификации налогов на землю и имущество	1444
Акбарова Нилуфар Нейматжановна	
Banklarda xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) asosida hisobot tuzish tartibi	1449
Arziboyeva Ravzaxon Sattarovna	
Kichik biznes subyektlari iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash mexanizmini takomillashtirish	1454
Akbarov Abdulhamid Akmal o‘g‘li	
O‘zbekiston Respublikasi hududlarida demografik jarayonlarning dinamikasi tahlili	1458
Xamitova Mavluda Sindarovna	
Ta’minot zanjirlarini boshqarishda big datadan foydalanishni afzalliklari	1463
Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich, Quryazov Quryozbek Ergash o‘g‘li	
Yashil texnologiyalardan keng foydalanish – yashil investitsiyalarning poydevori.....	1467
Xursandov Komiljon Maxmatkulovich	
Raqamli transformatsiya sharoitida tijorat banklarining strategik boshqaruv tizimini takomillashtirish yo‘llari.....	1470
Umurov Jasurbek Jamil o‘g‘li	
Digital neighbourhood contexts in youth employment and competency frameworks	1474
Gulsara Ostonaqulova	
Роль организации антимонопольной политики в национальной экономике в обеспечении экономической безопасности и конкурентоспособности.....	1482
Глазова Марина Викторовна	
Rivojlangan sug‘urta bozorlarida investitsiya faoliyati tahlili.....	1487
Suyunov Isomiddin Tilovkobilovich	



O'zbekiston respublikasida qurilish kompleksining hozirgi holati va asosiy rivojlanish tendensiyalari.....	1491
Muxibova Guli Yarkinovna	
Aholining turmush farovonligini oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli	1496
Ostanova Nargiza Baratovna	
Tadbirkorlik faoliyatini boshqarishda rahbarlik uslubi: demokratik rahbarlar	1508
Amonov Mehriddin Oromiddinovich	
Korxonlarni rivojlantirishda yashil iqtisodiyot mexanizmlarini joriy etish	1513
Yusupov Bekzod Ulugbekovich	
O'zbekistonda sog'lomlashtirish turizmi infratuzilmasini rivojlantirishni ko'p omilli ekonometrik modellashtirish asosida prognozlash	1517
Norchayev Asatullo Norbo'tayevich	
"Ijtimoiy himoya" kategoriyasiga qaratilgan nazariy qarashlar evolyusiyasi	1526
Bobonov N.H	
Majburiyatlar hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirishning nazariy asoslari.....	1532
Ikromova Odinaxon	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish sifatini oshirishda raqamli xizmatlarning obyektiv zarurati	1537
Norov Murodjon Mahmudovich	
Oliy ta'lim xizmatlari mohiyati va rivojlanish nazariyasi.....	1541
Iskandarov Shahboz Shavkat o'g'li	
Davlat-xususiy sheriklikka oid ilmiy yondashuv va qarashlarning rivojlanish tendensiyalari	1545
O'ktamova Nargiza Narzulla qizi	
Theoretical foundations of time series analysis in green economy	1552
Muradov Rustamjon Sobitkhonovich	
Korxona faoliyati samaradorligini baholashning kompleks yondashuvi: nazariya va amaliyot.....	1563
Xalilov Bekzod Axmatovich	
Aholi real daromadlarini shakllantirishda inson kapitalini rivojlantirishning roli.....	1568
Iskandarova Dilafruz Ikrom qizi	
Yashil iqtisodiyotda transportning tutgan o'рни.....	1573
Yuldasheva Saodat Arslanovna, Otanazarova Charos Baxtiyor qizi	
Xalqaro standartlar asosida hisob siyosati metodologiyasini takomillashtirish.....	1577
Qurbanboev Jurabek Eruvboevich	
Sanoat tarmoqlarini barqaror rivojlantirishda "yashil" iqtisodiyotdan samarali foydalanish istiqbollari.....	1585
Yuldasheva Saida Nematovna	
Mintaqaviy mehnat bozorini tartibga solishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....	1593
Azadova Gulnoza Sardorbekovna	
O'zbekistonda yashil sug'urta mahsulotlarini rivojlantirishda xorij tajribalari	1600
Yusufov Asfandiyor Eldor o'g'li	



O'ZBEKISTONDA YASHIL SUG'URTA MAHSULOTLARINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJ TAJRIBALARI

Yusuf Asfandiyor Eldor o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
"Xalqaro moliya" kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston sharoitida yashil sug'urta xizmatlarini keng joriy etish borasida fikr-mulohazalar yuritilgan bo'lib, mazkur mavzuga doir xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy tadqiqotlari bayon etilgan. Shuningdek, maqolada yashil sug'urta bozorini rivojlantirish borasida xorij tajribalari o'rganilgan, qolaversa, O'zbekiston sharoitida yashil sug'urta xizmatlarini tadbiq etish yuzasidan tahlil va natijalar qo'llanilgan. Shu bilan birga, mazkur sohani rivojlantirishda nazariy tavsiyalar hamda amaliy takliflar keltirilgan.

Kalit so'zlar: yashil sug'urta, sug'urta kompaniyalari, sug'urta xizmatlari, sug'urta mukofoti, sug'urta to'lovi, yashil investitsion loyihalar.

Abstract: This article discusses the wide implementation of green insurance services in Uzbekistan, and describes the scientific research of foreign and domestic scientists on this topic. The article also studies foreign experience in developing the green insurance market, and uses the analysis and results of the implementation of green insurance services in Uzbekistan. At the same time, theoretical recommendations and practical suggestions for the development of this area are presented.

Key words: green insurance, insurance companies, insurance services, insurance premium, insurance payment, green investment projects.

Аннотация: В данной статье рассматривается широкое внедрение услуг зеленого страхования в Узбекистане, а также описываются научные исследования зарубежных и отечественных ученых по данной теме. В статье также изучается зарубежный опыт развития рынка зеленого страхования, а также применяются анализ и результаты по внедрению услуг зеленого страхования в условиях Узбекистана. В то же время представлены теоретические рекомендации и практические предложения по развитию данного направления.

Ключевые слова: зеленое страхование, страховые компании, страховые услуги, страховая премия, страховая выплата, зеленые инвестиционные проекты.

KIRISH

Bugungi kunda jahonda kechayotgan globallashuv va texnologik rivojlanish bosqichida, ilm-fan real ishlab chiqarish va texnika-texnologiyalarning rivojlanishi natijasida yashil investitsion loyihalarga talab ortib bormoqda. Dunyo hamjamiyati amaliyotiga razm solmylik, yashil iqtisodiyotga shiddat bilan kirib borishi orqali mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy holati yanada yaxshilanib bormoqda.

Iqlim o'zgarishi va ekologik xavflarning ortib borayotgan bir paytida, O'zbekiston hukumati barqaror rivojlanishga qaratilgan faol harakatlarni amalga oshirmoqda. Bu boradagi muhim tashabbuslardan biri – yashil



sug'urta tizimini joriy etish bo'lib, bu xo'jalik yurituvchi subyektlarning tabiatga yetkazgan zararini oldini olish va qoplashga qaratilgan yangi mexanizmdir. 2025 yil 30-yanvardagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston – 2030" strategiyasida [1], mamlakatimizning Parij kelishuvi va Kioto protokoli doirasidagi xalqaro majburiyatlari asosida qabul qilindi. Ushbu hujjatda ekologik zarar uchun majburiy sug'urta tizimini bosqichma-bosqich joriy etish, shuningdek, "yashil tadbirkor" maqomini berish orqali ekologik toza texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash nazarda tutilgan. Atrof-muhitni muhofaza qilish bugungi kundagi eng dolzarb muammolardan biridir. Shu bois, O'zbekistonda ishlab chiqarish jarayonining ekologik xavfsizligini oshirish maqsadida majburiy ekologik sug'urta tizimi joriy etilmoqda. Bu tizim korxonalarni atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirishga undaydi va ular tomonidan yetkazilgan zararni qoplash mexanizmini taklif etadi.

Bu esa o'z navbatida, mamlakat ekologik sug'urta xizmatlarini ommalashishiga, qolaversa, yashil iqtisodiyot arsenalida muhim pozitsiyani egallashga hissa qo'shishi mumkinligi bilan izohlanadi. Shuningdek, yashil sug'urta – bu oddiy moliyaviy vosita emas, balki ekologik boshqaruvning muhim tizimi. U atrof-muhit va iqtisodiyot o'rtasida barqaror muvozanatni ta'minlab, biznesni mas'uliyatli faoliyat yuritishga undaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada analiz, sintez, tanlanma kuzatuv, qiyoslash, statistik tahlil, induksiya, deduksiya kabi tadqiqot usullaridan keng foydalanilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Hu Yucai va bir qancha olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotda [2] yashil sug'urtaning korxonalar innovatsion faoliyatiga ta'siri o'rganilgan. 2008–2020 yillar oralig'ida Xitoydagi kompaniyalar ma'lumotlari asosida olib borilgan tahlil natijalariga ko'ra, yashil sug'urtaga ega korxonalar ekologik patentlar sonini oshirgan. Bu sug'urta korxonalarga ko'proq resurslar jalb qilish, xavflarni qabul qilishga tayyorlik va uzoq muddatli strategiyalarni amalga oshirish imkonini bergan. Shuningdek, yashil sug'urta korxonalarning ekologik samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynagan.

Osiyo olimlari Pu Chengyi, Mo Chou va Li Peihuanlarning ilmiy tadqiqotlarida [3] yashil sug'urta va texnologik sug'urtaning korporativ yashil innovatsiyalarga ta'siri o'rganilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bu ikki turdagi sug'urta birgalikda korxonalarning yashil innovatsiyalarini sezilarli darajada oshirgan. Ayniqsa, davlatga qarashli korxonalarda bu ta'sir yanada kuchliroq namoyon bo'lgan.

Xorij olimi Bo Wu tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda [4] ekologik javobgarlik sug'urtasining sanoat karbon chiqindilariga ta'siri o'rganilgan. 2010–2020 yillar oralig'idagi ma'lumotlar asosida olib borilgan tahlil natijalariga ko'ra, ekologik javobgarlik sug'urtasi sanoat karbon chiqindilarini kamaytirishda samarali bo'lgan. Biroq, bu ta'sir moliyaviy soha rivojlangan hududlarda kamroq sezilgan. Shuningdek, sanoati rivojlangan hududlarda sug'urtaning ta'siri yanada aniqroq bo'lgan.

Amerikalik olim, Pensilvaniya universitetining "Wharton" maktabi professori Howard Kunreuther iqlim xavflari va sug'urta sohasida yetakchi tadqiqotchi hisoblanadi. Xususan, toshqin va boshqa tabiiy ofatlar xavfini sug'urta orqali qanday boshqarish mumkinligini ko'rsatadi. Uning fikricha, sug'urta mukofotlari xavf asosida belgilanishi kerak, bu esa xavfli hududlarda yashovchi aholining xavflarni kamaytirish choralari ko'rishga undaydi [5].

Polshalik professor Katarzyna Malinowska o'zining "Managing Environmental Risks Through Insurance: Legal and Economic Aspects [6]" nomli ilmiy risolasi sug'urtaning ekologik xavflarni boshqarishdagi rolini yoritadi. U sug'urta kompaniyalarining ekologik xavflarni aniqlash, baholash va qamrab olishdagi huquqiy va iqtisodiy jihatlarni tahlil qiladi. Shuningdek, ekologik sug'urta mahsulotlarining rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan omillarni ham ko'rsatadi.

O'zbek tadqiqotchilaridan A.A. Boboyevning fikricha, "Yashil sug'urta" – bu atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlarini kamaytirishga qaratilgan sug'urta mahsulotlari va xizmatlaridir. Yashil sug'urta barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish, ekologik risklarni boshqarish transformatsiyasini va iqtisodiyotning rag'batlantirishda yashil muhim rol o'ynaydi [7].

Iqtisodchi olimlar H. Umarov, A. Bahodirov, A. Eshonqulov va H. Allataifehlar [8] O'zbekiston sug'urta bozoriga ESG (Ekologik, ijtimoiy va boshqaruv) prinsiplarini tatbiq etish jarayoni ko'rib chiqilgan. Mualliflar, O'zbekiston sug'urta bozorining joriy holatini tahlil qilib, ESG prinsiplarini integratsiya qilishda yuzaga keladigan muammolarni ko'rsatadilar va bu prinsiplarning amaliyotga tatbiq etish uchun zarur strategik qadamlarni taklif qiladilar. Shuningdek, ilmiy o'rganishlar natijasida ESG prinsiplarining sug'urta bozorida qanday o'rni borligi va bu prinsiplarning bozorni rivojlantirishdagi roli alohida ta'kidlashgan bo'lib, O'zbekistonda sug'urta sohasining ekologik barqarorlik, ijtimoiy mas'uliyat va samarali boshqaruvni ta'minlash uchun ESG prinsiplarini qabul qilishning ahamiyatini ko'rsatdilar va yashil sug'urta sohasidagi mavjud tadqiqotlarni o'rganib, asosiy yo'nalishlar




va tendensiyalarni aniqladilar hamda ushbu sohada kelgusi tadqiqotlar uchun imkoniyatlarni mavjud ekanligini alohida qayd etishdi.

Mahalliy olim, professor X.Boyevning fikricha, xalqaro sug'urta tajribasida risklarni baholashda anderraytingni tavsiyalariga sug'urta kompaniyalarini rahbarlari katta e'tibor berib, har bir sug'urtalanuvchini olib kelayotgan risklarini asosan anderrayterlar baholab tuzilayotgan shartnomani kompaniyaga keltirishi mumkin bo'lgan zarar va foydasini avvalo anderrayting tizimida faoliyat ko'rsatadigan anderrayterlar prognoz qilib aniqlab beradi. Yashil sug'urta xizmatlari sohasida ham atrof-muhit va ekologik xavf-xatarlarni baholovchi mutaxassislarni tayyorlash sohaning rivojiga katta ta'sir ko'rsatmay qolmaydi [9].

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Bugungi kunda ekologik barqarorlik va iqlim o'zgarishiga qarshi kurash global muammoga aylangan bir paytda, yashil sug'urta tushunchasi tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Yashil sug'urta – bu atrof-muhitni muhofaza qilish, energiya samaradorligini oshirish hamda barqaror texnologiyalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan sug'urta xizmatlarining majmuasidir.



1-rasm. Jahon amaliyotida yashil sug'urta xizmatlarining asosiy jihatlari [10].

Yuqoridagi ma'lumotlardan kelib chiqib, jahon amaliyotida yashil sug'urta xizmatlarining asosiy bo'lgan segmentlari quyidagicha izohlanadi:

1. Ekologik xavf-xatarlarni sug'urtalash. Yashil sug'urtaning eng muhim jihatlaridan biri – bu ekologik xavf-xatarlarni qamrab olgan sug'urta xizmatlaridir. Bunga tabiiy ofatlar, iqlim o'zgarishi va boshqa ekologik muammolar natijasida yuzaga keladigan xavf-xatarlarni moliyaviy jihatdan qoplash kiradi. Bu turdagi sug'urta, ayniqsa, ekologik noaniqlik yuqori bo'lgan hududlarda muhim ahamiyat kasb etadi.

2. Barqaror energiya loyihalari. Yashil sug'urta qayta tiklanadigan energiya manbalariga asoslangan loyihalarni qo'llab-quvvatlaydi. Masalan, quyosh va shamol energiyasi kabi toza energiya manbalariga tayangan loyihalarni sug'urtalash orqali, bu sohaning rivojlanishiga xizmat qiladi. Bu esa energetik mustaqillik va atrof-muhitni asrashga xizmat qiluvchi muhim qadam hisoblanadi.

3. Ijtimoiy mas'uliyat. Yashil sug'urta faqat ekologik emas, balki ijtimoiy mas'uliyatni ham o'z zimmasiga oladi. U mijozlarga ekologik toza amaliyotlar va energiya samaradorligini oshirish bo'yicha maslahatlar beradi. Bu esa korxona yoki jismoniy shaxslarning ijtimoiy va ekologik ongini yuksaltirishga xizmat qiladi.

4. Yashil sertifikatlar. Yashil sug'urta doirasida energiya samaradorligi va ekologik me'yorlarga mos keluvchi binolar uchun maxsus sug'urta shartlari va chegirmalar taklif etiladi. Bunday imtiyozlar yashil sertifikatlar asosida beriladi. Bu esa, o'z navbatida, ekologik talablarni bajarishni rag'batlantiradi.

5. Innovatsion texnologiyalar. Yashil sug'urta yangi texnologiyalar va monitoring tizimlarini qo'llab-quvvatlaydi. Bu esa, xavf-xatarlarni aniqroq baholash va samarali boshqarish imkonini beradi. Innovatsion texnologiyalar yordamida sug'urta jarayonlari yanada tez, aniqligi yuqori va ekologik jihatdan samaraliroq bo'ladi.




1. Maqsad va yondashuv	Yashil sug'urta	An'anaviy sug'urta
	Atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror rivojlanishni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Bu sug'urta turi ekologik xavf-xatarlarni kamaytirishga, qayta tiklanadigan energiya manbalarini rag'batlantirishga va ijtimoiy mas'uliyatni oshirishga qaratilgan.	Asosan, moliyaviy xavflarni boshqarishga yo'naltirilgan, masalan, mulk, hayot yoki sog'liq sug'urtasi. Bu turdagi sug'urta ko'proq iqtisodiy foyda va zararni qoplashga e'tibor beradi.
2. Risklarni boshqarish	Yashil sug'urta	An'anaviy sug'urta
	Ekologik risklarni boshqarishga yo'naltirilgan va energiya samaradorligi yoki barqaror loyiha talablariga mos keladigan mahsulotlar uchun maxsus shartlar taqdim etadi.	Odatda, iqtisodiy xavflar va muammolarni qoplashga qaratilgan, ekologik jihatlarga kam e'tibor beradi.
3. Mahsulotlar va shartlar	Yashil sug'urta	An'anaviy sug'urta
	Qayta tiklanadigan energiya loyihalari, energiya samaradorligi yuqori bo'lgan binolar va ekologik jihatdan toza mahsulotlar uchun sug'urta polislarini taklif etadi. Mijozlar ekologik me'yorlarga mos kelganida chegirmalar va bonuslar olishlari mumkin.	Keng turdagi sug'urta mahsulotlarini taklif etadi, ammo ekologik talablar va barqarorlikni e'tiborga olmaydi.
4. Ijtimoiy mas'uliyat	Yashil sug'urta	An'anaviy sug'urta
	Ijtimoiy mas'uliyatni oshirishga qaratilgan va ekologik tadbirlarga jalb qilishni maqsad qiladi. Mijozlarga energiya samaradorligi va atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha maslahatlar beriladi.	Ko'proq moliyaviy masalalarga e'tibor beradi va ijtimoiy mas'uliyatni kamroq e'tiborga oladi.

2-rasm. Yashil sug'urtaning an'anaviy sug'urtadan farqli jihatlari [11].

Yuqorida keltirilgan rasmda ko'rishimiz mumkinki, yashil sug'urta – bu ekologik barqarorlikni ta'minlashga, atrof-muhitni muhofaza qilishga va ijtimoiy mas'uliyatni oshirishga yo'naltirilgan sug'urta turi hisoblanadi. U asosan qayta tiklanuvchi energiya manbalari, energiya samarador binolar va ekologik xavfsiz loyihalarni sug'urtalashni o'z ichiga oladi. Yashil sug'urta ekologik xavf-xatarlarni kamaytirishga, barqarorlik tamoyillarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Bu turdagi sug'urta mijozlarni ekologik me'yorlarga amal qilishga undaydi va bunga erishganlarga chegirmalar yoki bonuslar taqdim etadi. Masalan, ekologik toza binoga ega mijoz pastroq sug'urta to'lovlari olish imkoniga ega bo'lishi mumkin. Shuningdek, mijozlarga atrof-muhitni muhofaza qilish, chiqindilarni kamaytirish va energiya samaradorligini oshirish bo'yicha maslahatlar ham beriladi.

Yashil sug'urta ijtimoiy ongni shakllantirish, ekologik tadbirlarda ishtirokni rag'batlantirish va barqaror rivojlanishga xizmat qiladi. U moliyaviy himoya bilan birga ekologik va ijtimoiy foyda keltirishni maqsad qiladi. An'anaviy sug'urta esa asosan iqtisodiy xavflarni qoplashga qaratilgan bo'lib, mulk, sog'liq, hayot yoki moliyaviy yo'qotishlarni qoplashni ko'zlaydi. U ekologik yoki barqarorlik mezonlariga katta ahamiyat bermaydi. An'anaviy sug'urta keng doiradagi mahsulotlarni taklif qilsa-da, ekologik jihatlar ikkinchi darajada bo'ladi. Bu sug'urta turi odatda mijozga moliyaviy xavflardan himoya berishni maqsad qiladi. Ijtimoiy mas'uliyat va ekologik barqarorlik masalalari unchalik e'tiborga olinmaydi. Yashil sug'urta esa bu jihatlarni asosiy ustuvor yo'nalish sifatida ko'radi. Bugungi kunda iqlim o'zgarishlari va atrof-muhit muammolari ortib borayotgan bir paytda, yashil sug'urta dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. U ekologik xavfsizlikni ta'minlash bilan birga iqtisodiy barqarorlikni ham qo'llab-quvvatlaydi. Shu sababli ko'plab kompaniyalar va tashkilotlar yashil sug'urtani afzal ko'rmoqda. Yashil sug'urta faqat moliyaviy xavflarni emas, balki global ekologik xavflarni ham boshqarishga xizmat qiladi. Bu esa uni zamonaviy va mas'uliyatli sug'urta turi sifatida ajratib turadi.



3-rasm. Rivojlangan mamlakatlar kesimida yashil sug'urta xizmatlarining umumiy sug'urta bozorida ulushi (fozida) [12].

Yuqoridagi diagrammada turli mamlakatlarda yashil sug'urtaning umumiy sug'urta bozorida ulushi foizlarda ifodalangan. Eng yuqori ulush Yevropa Ittifoqiga (25%) tegishli bo'lib, bu hududda ekologik sug'urtalashga katta e'tibor berilayotganini ko'rsatadi. Avstraliya (15%) va AQSH (12%) ham bu borada ilg'or hisoblanadi, Xitoy va Yaponiya esa nisbatan pastroq ulushga ega ekanligi qayd etilgan.

Yashil sug'urta – ekologik barqarorlikni qo'llab-quvvatlovchi va ijtimoiy mas'uliyatni oshiruvchi zamonaviy sug'urta turi hisoblanadi. U an'anaviy sug'urtaga nisbatan ekologik xavflarni kamaytirishga va barqaror rivojlanishga xizmat qiladi.

Jahon amaliyotida uning ulushi hali past bo'lsa-da, Yevropa va AQSH kabi hududlarda o'sish tendensiyasi mavjud. Yashil sug'urta moliyaviy xavflar bilan birga atrof-muhitni ham himoya qilishni ko'zlaydi. Kelajakda bu yo'nalish yanada kengayib, barqaror iqtisodiyotning muhim qismiga aylanishi kutilmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytish mumkinki, xorijiy tajriba va ilg'or amaliyotlardan kelib chiqib, O'zbekistonda yashil sug'urta xizmatlarini rivojlantirish uchun quyidagi taklifni berish maqsadga muvofiqdir:

1. Normativ-huquqiy asoslarni ishlab chiqish:

Atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan sug'urta mahsulotlarini tartibga soluvchi alohida qonunlar va me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish zarur.

2. Ekologik loyihalarga soliq imtiyozlari va subsidiyalar:

Yashil sug'urtaga ega bo'lgan energiya samarador qurilmalar yoki qayta tiklanuvchi energiya loyihalari uchun davlat tomonidan moliyaviy rag'batlar (chegirmalar, soliq imtiyozlari) berilishi kerak.

3. Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kuchaytirish:

UNEP, OECD yoki PSI kabi tashkilotlar bilan hamkorlikda tajriba almashish, kadrlar tayyorlash va texnik yordam olish yo'lga qo'yilishi lozim.

4. Sug'urta kompaniyalariga innovatsion mahsulotlar ishlab chiqishda grantlar:

Yashil sug'urta mahsulotlari yaratadigan kompaniyalarga innovatsiyalar uchun grantlar va boshqa qo'llab-quvvatlov mexanizmlari taqdim etilishi mumkin.

5. Ijtimoiy ongni oshirish va targ'ibot ishlari:

Aholi va biznes subyektlari orasida yashil sug'urtaning foydasi va zarurati haqida ommaviy axborot vositalari, seminarlar va treninglar orqali keng targ'ibot ishlarini olib borish lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni - <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>
2. Hu Y. et al. How does green insurance affect green innovation? Evidence from China //Sustainability. – 2023. – T. 15. – №. 16. – C. 12194.
3. Pu, Chengyi, Chou Mo, and Peihuan Li. "Green insurance, technology insurance, and corporate green innovation." Frontiers in Environmental Economics 2 (2024): 1266745.
4. Wu, Bo. "A Study on the Impact of Environmental Liability Insurance on Industrial Carbon Emissions." arXiv preprint arXiv:2503.15445 (2025).
5. Kunreuther H. Reauthorizing the national flood insurance program //Issues in Science and Technology. – 2018. – T. 34. – №. 3. – C. 37-51.
6. Malinowska, Katarzyna, and Dorota Maśniak. Managing Environmental Risks Through Insurance: Legal and Economic Aspects. 2024. https://tertulia.com/book/managing-environmental-risks-through-insurance-legal-and-economic-aspects-katarzyna-malinowska/9783031476013?utm_source=chatgpt.com
7. Boboyev Abror Abdusattor o'g'li. "Yashil sug'urta va uning moliya tizimida tutgan o'rni." Central Asian Journal of Academic Research 3.4 (2025): 172-176.
8. Umarov, H., Bakhadirov, A., Eshonkulov, A., & Allataifeh, H. (2024). Introduction of ESG Principles in the Insurance Market of Uzbekistan. In E3S Web of Conferences (Vol. 574, p. 03003). EDP Sciences.
9. Boyev X. I. O'zbekiston sug'urta bozorini rivojlanishi istiqbollarini ta'minlash omillari //Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. – 2024. – T. 1. – №. 4.
10. Insurance Information Institute. (2023). "Understanding Green Insurance."
11. Stricker L. et al. Green insurance: a roadmap for executive management //Journal of Risk and Financial Management. – 2022. – T. 15. – №. 5. – C. 221.
12. OECD (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti)ning rasmiy veb sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi. <https://www.oecd.org>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>